


23-dars. GRAFIK MUHARRIRLARIDA SOHANI BELGILASH AMALLARI

Paint.Net dasturida sohalarni **belgilash**, **qirqib olish** va ular ustida turli amallar bajarish mumkin. Dastur interfeysiда 3 xil usulda belgilab olish imkonи mavjud:



- 1) uskunalar oynasidagi piktogrammalar yordamida;
- 2) uskunalar panelidagi usullar yordamida;
- 3) rasmning ixtiyoriy sohasini cursor yordamida to'g'ri to'rtburchak shaklida belgilab olish.




Dastur uskunalar panelida sohani belgilab olishning 4 usuli berilgan:



- sohani to'g'ri to'rtburchak shaklida belgilab olish;
- lasso (rasmni ixtiyoriy konturi bo'yicha belgilab olish);
- sohani oval (doira) shaklida belgilab olish;
- sehrli tayoqcha (rasmning chegara rangi bilan belgilab olish).

Belgilangan sohani qirqib olish uchun uskunalar panelidan (obrezka) uskuna tanlanadi va uni saqlab qo'yish yoki nusxa olish kabi amallar bajariladi.

1-mashq. Paint.Net dasturi uskunalar panelidan belgilash usulini tanlaymiz. Ishchi sohada sichqonchaning chap tugmasini bosgan holda sharsimon shakl chizamiz va belgilash amalini olmasdan turib **Fill** (заливка) uskunasini tanlaymiz va biror rang bilan bo'yaymiz. So'ngra **Ctrl + D** yordamida belgilashni olib tashlaymiz. Bu amallarni yana 2 ta shar bilan takrorlaymiz.




Bog'lagichlarni hosil qilish uchun uskunalar panelidan egri chiziqlarini tanlaymiz va ular bilan bezatamiz.


2-mashq. Sehrli tayoqcha (Волшебная палочка) uskunasidan foydalaniib, matolarga gul chizish texnologiyasi bilan tanishib chiqamiz. Rasm o'lchamini 500x500 belgilaymiz va **ok** tugmachasini bosamiz. Uskunalar panelidan sehrli tayoqchani tanlaymiz va gulning chegara qismiga sichqoncha strelkasini olib kelib, sichqonchaning chap tugmachasini bosamiz.

Shtrix chiziqlar bilan belgilangan sohadan **Копировать** buyrug'i orqali nusxa olamiz va uni yangi hujjatga joylashtiramiz. Joylashgan guldan shtrix chiziqlarini olib tashlash uchun **Ctrl + D** ni bosamiz.

Bu amalni 3–4 marta takrorlab, ish maydoniga xohlagan rangni beramiz va uni shakllar bilan bezatamiz.



3-mashq. Soyabon rasmini hosil qilish texnologiyasi. Paint.Net dasturini ishga tushiring va **Файл** bo'limini oching va **Открыть** (ochish) buyrug'ini tanlang. Hosil bo'lgan (Обзор) oynachasidan biror rasm faylini tanlang va **Открыть (ochish)** amalini bajaring. Rasm o'lchamini 500x500 qilib belgilang va **Ok** tugmachasini tanlang. So'ng uskunalar oynachasidan oval shakli bilan belgilab olish tugmachasini tanlang va rasmning o'rta sohasini belgilang. Belgilangan sohani uskunasi yordamida qirqib oling va yangi qatlamga ko'chiring.



Oval shaklidagi rasmning ostki yarim qismidan 3 ta bo'lakni qirqib oling. Bunig uchun uskunalar oynachasidan yana pictogrammasini tanlang. **Shift** tugmachasini bosib turgan holda rasmning ostki qismidan 1/3 bo'lagini belgilang. **Shift** tugmachasini qo'yib yuborgandan so'ng **Del** tugmachasini bosing. Qolgan 2 ta qismi ustida ham shu ishni bajaring.



Soyabon ustki qismi hosil bo'lgach, uning tutqichini to'rtburchak shakli va egri chiziqlar yordamida chizamiz.

Soyabonning tutqichi va chegara chiziqlari hosil qilinadi, so'ngra uskunalar oynachasidan bo'yoq (заливка), ranglar panelidan biror rang tanlanib, ochiq soha bo'yaladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



- 1. Paint.Net dasturida yuklangan rasm bilan qanday amallar bajarish mumkin?
- 2. Rasm sohasini belgilashning necha turi mavjud?
- 3. Paint.Net dasturi interfeysidagi matn bilan ishlash panellari haqida gapirib bering.
- 4. Qalam va mo'yqalam yordamida sodda rasmlar chizing.

UYGA VAZIFA



1. Paint.Net dasturida sohani belgilash uskunalari yordamida rasmlar hosil qiling.
2. "Mening sevimli ertak qahramonim" mavzusida rasm yarating va chop eting.
3. Paint.Net dasturi uskunalaridan foydalanib, "Milliy naqshlar kompozitsiyasi" mavzusida tasvirlar yarating.
4. Jadvalda ko'rsatilgan har bir uskunalarning vazifasini izohlang va yozib oling:
